



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlari Kollegial organlari faoliyatini tashkil etish tartibini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son, "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lgan qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son Farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida" 2019-yil 24-dekabrdagi 1030-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq belgilash bo'yicha kollegial organlar faoliyatini tashkil etish tartibi (keyingi o'rinnarda - Tartib) l-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega rahbarlarga qo'shimcha haq to'lash bo'yicha vazirlik komissiyasining tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlari hamda vazirlilik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar rahbarlariga:

ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lanishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrdagi 1030-son qarori (keyingi o'rinnarda - Qaror) bilan tasdiqlangan "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat

tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo‘srimcha haq to‘lash tartibi to‘g‘risida nizom” (keyingi o‘rinlarda - Nizom) talablari asosida amalga oshirilishini qat’iy nazoratga olish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, shuningdek, Vazirlikka idoraviy mansub tashkilotlar va muassasalar rahbarlari uchun Nizomga muvofiq qo‘srimcha haq belgilash Kollegial organning qarori asosida taqdimnoma bilan ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun har yili 1-dekabrga qadar Vazirlik komissiyasiga taqdimnoma bilan Tartibning 3-ilovasiga muvofiq topshirish;

ustamalarni to‘lab berish uchun ajratilgan mablag‘lar, shu jumladan, moliya yili oxirida sarf qilinmagan hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Moliya-iqtisod departamentiga taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

3. Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Kuchkarova)ga:

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi ilm-fan va ta’lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo‘srimcha haq belgilash bo‘yicha kollegial organlar faoliyatini doimiy ravishda muvofiqlashtirish;

Vazirlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysunadigan ilm-fan va ta’lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo‘srimcha haq belgilangan xodimlar ro‘yxatini tegishli mablag‘larni rejalashtirish uchun har moliya yili boshlanishidan avval 25-dekabrga qadar Moliya-iqtisod departamentiga taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev) taqdim etilgan ro‘yxatga asosan respublika budjeti hisobidan Vazirlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysunadigan ilm-fan va ta’lim sohasidagi davlat tashkilotlarining xarajatlar smetasida tegishli mablag‘larni rejalashtirish choralarini ko‘rsin.

5. Ichki audit va moliyaviy nazorat departamenti Qarorga muvofiq xodimlarga qo‘srimcha haq belgilanishining asoslanganligi, shuningdek, ularni to‘lash uchun ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini doimiy nazorat qilib borsin.

6. Devonxona (D.Isxakova) o‘rnatilgan tartibda ushbu buyruqni tegishli boshqarma va bo‘limlar, hududiy boshqarmalar hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalarga yetkazsin.

7. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2020-yil 8-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrdagi 1030-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 9-sonli hamda 2020-yil 8-iyuldagagi “Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi ilm-fan va ta’lim sohasidagi davlat tashkilotlari Kollegial organlari faoliyatini tashkil etish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 158-sonlli buyruqlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosarlari U.Begimkulov va T.Komilovlar zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X. Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil “5”-aprel,
“84”-son